

International standards and scientific approaches to managing the supply chain of goods through customs control in world experience.

Kilichov Nazar Bafoyevich
Independent researcher at the Customs Institute

Jahon tajribasida tovar yetkazib berish zanjirini bojxona nazorati orqali boshqarishning xalqaro standartlari va ilmiy yondashuvlar.

Kilichov Nazar Bafoyevich
Bojxona instituti mustaqil tadqiqodchisi

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of international standards, conventions, and leading scientific approaches to managing commodity supply chains through customs control within the framework of the modern global economy. The study delineates the essence and significance of the World Customs Organization's SAFE Framework standards, the World Trade Organization's Trade Facilitation Agreement, UNECE recommendations, and the institutions of Authorized Economic Operators. Furthermore, it scientifically and methodologically substantiates the interrelation of the Kyoto, Istanbul, and TIR conventions—which constitute the cornerstone of international customs law—and evaluates their impact on the sustainability of the supply chain. The paper conducts a comparative analysis of 8 key scientific approaches in the field, highlights their potential opportunities and challenges in modernizing the customs system of Uzbekistan, and proposes a new integrated approach model.

Keywords: commodity supply chain, customs control, SAFE Framework, TFA, Kyoto Convention, AEO, digital transformation, transaction costs, Single Window.

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida tovar yetkazib berish zanjirini bojxona nazorati orqali boshqarishning xalqaro standartlari, konvensiyalari va yetakchi ilmiy yondashuvlari atroflicha tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida Jahon bojxona tashkilotining SAFE Framework standartlari, Jahon savdo tashkilotining Savdoni osonlashtirish bo'yicha kelishuvi, UNECE tavsiyalari hamda vakolatli iqtisodiy operator institutlarining mohiyati va ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, xalqaro bojxona huquqining poydevori hisoblangan Kyoto, Istanbul va TIR konvensiyalarining o'zaro bog'liqligi hamda ularning tovar yetkazib berish zanjiri barqarorligiga ta'siri ilmiy-metodologik jihatdan asoslangan. Maqolada sohadagi mavjud 8 ta asosiy ilmiy yondashuv qiyosiy tahlil etilib, ularning O'zbekiston bojxona tizimini modernizatsiya qilishdagi imkoniyatlari va duch kelayotgan muammolari yoritilgan hamda yangi integratsiyalashgan yondashuv modeli taklif etilgan.

Kalit so'zlar: tovar yetkazib berish zanjiri, bojxona nazorati, SAFE Framework, TFA, Kyoto konvensiyasi, AEO, raqamli transformatsiya, tranzaksion xarajatlar, yagona darcha.

Аннотация. В данной статье подробно анализируются международные стандарты, конвенции и ведущие научные подходы к управлению цепями поставок товаров посредством таможенного контроля в условиях современной глобальной экономики. В рамках исследования раскрываются сущность и значение стандартов SAFE Framework Всемирной таможенной организации, Соглашения по упрощению процедур торговли Всемирной торговой организации, рекомендаций ЕЭК ООН и институтов уполномоченных экономических операторов. Также научно-методологически обоснована взаимосвязь Киотской, Стамбульской конвенций и Конвенции МДП, являющихся фундаментом международного таможенного права, и их влияние на устойчивость цепей поставок товаров. В статье проведен сравнительный анализ 8 основных научных подходов в данной области, освещены их возможности и проблемы, с которыми они сталкиваются при модернизации таможенной системы Узбекистана, а также предложена новая модель интегрированного подхода.

Ключевые слова: цепь поставок товаров, таможенный контроль, SAFE Framework, TFA, Киотская конвенция, УЭО, цифровая трансформация, транзакционные издержки, единое окно.

Zamonaviy global iqtisodiyotning shiddatli rivojlanishi xalqaro savdo aylanmasini jadallashtirish bilan bir qatorda, xavfsizlik va nazorat tizimlarini ham tubdan takomillashtirishni talab etmoqda. Bugungi kunda xalqaro savdoda tovar yetkazib berish zanjirining samaradorligi ko'p jihatdan davlatlarning bojxona tartibotlari qay darajada mukammal va moslashuvchan ekanligiga bog'liqdir. Bojxona nazorati faqatgina davlat chegaralarini himoya qilish funksiyasi emas, balki qonuniy savdo-sotiq jarayonlarini osonlashtiruvchi, biznes resurslarini optimallashtiruvchi va tranzaksion xarajatlarni kamaytiruvchi strategik instrumentga aylanib ulgurdi.

Jahon tajribasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, tovar yetkazib berish zanjirlarini xavfsiz va to'xtovsiz harakatlanishini ta'minlash maqsadida xalqaro tashkilotlar tomonidan qator global standartlar va fundamental konvensiyalar ishlab chiqilgan bo'lib, ular jahon iqtisodiyotining huquqiy va institutsional poydevorini tashkil etadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining ham ushbu xalqaro kelishuvlarga qo'shilishi hamda milliy bojxona tizimida "Yagona darcha", "Vaolatli iqtisodiy operator" kabi institutlarni joriy etishi mamlakatimizning global logistika zanjiriga integratsiyalashuvida muhim qadam bo'ldi.

Ushbu tadqiqot ishining maqsadi — tovar yetkazib berish zanjirini bojxona nazorati orqali boshqarishning xalqaro standartlari va konvensiyalarini tizimli o'rganish, mavjud ilmiy yondashuvlarning kuchli va zaif tomonlarini tahlil qilish hamda O'zbekiston sharoitida bojxona tizimini raqamli va institutsional transformatsiya qilish bo'yicha ilmiy asoslangan integratsiyalashgan yondashuv modelini taklif etishdan iboratdir.

Zamonaviy global iqtisodiyotda xalqaro standartlar tovar yetkazib berish zanjirlarini boshqarishning asosiy poydevori hisoblanadi. Ular davlatlar o'rtasidagi savdo jarayonlarini standartlashtirish, bojxona tartibotlarini soddalashtirish va xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan. Tovlar yetkazib berish zanjirlari va bojxona nazoratini boshqarishga oid asosiy xalqaro standartlar quyidagilar:

1. *Jahon bojxona tashkiloti "Tovar yetkazib berish zanjiri xavfsizligi va osonligi standartlari"*. Jahon bojxona tashkiloti tomonidan 2005-yilda qabul qilingan "Tovar yetkazib berish zanjiri xavfsizligi va osonligi standartlari" (SAFE Framework of standards) global miqyosda bojxona nazorati va tovar yetkazib berish zanjiri boshqaruvini integratsiyalashtirishning asosiy hujjati hisoblanadi. Bu standart 2018-yilda qayta ko'rib chiqilgan va yangilangan.¹

1-jadval

SAFE Framework to'rt ta asosiy ustunga asoslanadi:

Birinchi ustun — Bojxona ma'muriyatlari o'rtasidagi hamkorlik	Ikkinchi ustun — Bojxona va biznes hamkorligi:	Uchinchi ustun — Texnologiyalarni qo'llash:	To'rtinchi ustun — Salohiyatni oshirish:
- axborot almashinuvini yaxshilash; - xavflarni boshqarish tizimlarini - integratsiyalashtirish; - qo'shma nazorat operatsiyalarini o'tkazish; - o'zaro tan olish kelishuvlarini imzolash.	- Vakolatli iqtisodiy operator instituti; - biznesning xavfsizlik majburiyatlarini belgilash; - imtiyozlar va yengilliklar berish;	- elektron ma'lumot almashish; avtomatlashtirilgan xavflarni boshqarish; - nointruziv tekshiruv uskunalaridan foydalanish; - raqamli texnologiyalarni joriy etish.	- rivojlanayotgan davlatlarga yordam; - o'quv dasturlari va treninglar; - texnik yordam ko'rsatish; - axborot almashish platformalari.

¹ World Customs Organization (WCO). SAFE Framework of Standards to Secure and Facilitate Global Trade. Brussels: WCO, 2022. P. 12-45. URL: <https://www.wcoomd.org/en/topics/securing-and-facilitating-trade/safe-framework.aspx> (Murojaat qilingan sana: 04.07.2026).

	- hamkorlikka asoslangan munosabatlar.		
--	--	--	--

SAFE Frameworkni amalga oshirishda quyidagi muammolar mavjud:

- rivojlanayotgan davlatlarda texnik salohiyatning yetishmasligi;
- moliyaviy resurslarning cheklanganligi;
- kadrlar tayyorlash muammolari;
- axborot tizimlarining integratsiyalanmaganligi.

2. *Jahon savdo tashkiloti "Savdoni osonlashtirish bo'yicha kelishuvi" (TFA)*

TFA 12 ta moddadan iborat bo'lib, ular quyidagi asosiy yo'nalishlarni qamrab oladi:²

Axborotni e'lon qilish va mavjudlik;

Tovarlarni erkin harakatlantirish;

Bojxona tartibotlarini soddalashtirish;

Chegara orqali o'tishda hamkorlik;

Tovarlarni tranzitda tashish erkinligi;

Bojxona tartibotlari bilan bog'liq rasmiyatchiliklar;

Single Window;

Chegara orqali o'tishda hamkorlik.

2023-yil holatiga ko'ra, TFA 154 ta JST a'zosi tomonidan ratifikatsiya qilingan. Bu jahon savdosining 90% dan ortig'ini qamrab oladi.

JST hisob-kitoblariga ko'ra, TFA to'liq amalga oshirilganda savdo xarajatlari 14,3% ga kamayadi, global savdo hajmi yiliga 1 trln dollargacha oshadi, rivojlanayotgan davlatlar eksporti 20% ga oshadi, shuningdek kichik va o'rta korxonalar uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratiladi.

O'zbekiston 2020-yildan TFAGA qo'shilgan va uning asosiy qoidalarini amalga oshirmoqda. Jumladan:

- single window tizimi joriy etilgan;
- oldindan qaror qabul qilish tizimi takomillashtirilgan;
- elektron deklaratsiyalashtirish tizimi joriy etilgan;
- tranzit tartiblari soddalashtirilgan.

UNECEning "Single Window tizimlari o'rtasida o'zaro bog'liqlikni ta'minlash" tavsiyalari.³ Bu tavsiyanoma turli davlatlarning Single Window tizimlari o'rtasida o'zaro bog'liqlikni ta'minlash bo'yicha yo'riqnoma hisoblanadi.

Asosiy tamoyillari: ma'lumot formatlarini muvofiqlashtirish, texnik protokollarni standartlashtirish, xavfsizlik talablarini belgilash, o'zaro tan olish mexanizmlari.

UNECE tavsiyonomalari dunyoning 100 dan ortiq davlatida qo'llanilmoqda. Xususan:

Yevropa Ittifoqida 2005-yildan boshlab majburiy;

AQShda ACE (Automated Commercial Environment) tizimi UNECE standartlariga moslashtirilgan;

Janubiy Koreyada UNI-PASS tizimi UNECE standartlariga asoslangan;

Singapurda TradeNet tizimi UNECE standartlariga mos.

O'zbekiston Single Window tizimini UNECE tavsiyonomalari asosida joriy etgan. Jumladan, "yagona darcha" axborot tizimi yaratilgan, 14 ta davlat organi integratsiya qilingan, elektron hujjat aylanishi joriy etilgan, ma'lumotlar standartlashtirilgan.

3. *ISO 28000 — "Xavfsizlik boshqaruv tizimlari"* — Yetkazib berish zanjiri uchun talablar" standarti tashkilotlarga tovar yetkazib berish zanjiri xavfsizligini boshqarish tizimini joriy etish va sertifikatlash imkonini beradi.

² World Trade Organization (WTO). TFA Ratification Status. Geneva: WTO, 2023. URL: https://www.wto.org/english/trade-topics/tfa_en.htm

³ United Nations Economic Commission for Europe (UNECE). Recommendation No. 35 — Single Window Interoperability. Geneva: UNECE, 2020. 25 p. URL: <https://unece.org/trade/recommendations>

ISO 28000 quyidagi asosiy talablarni o'z ichiga oladi:

Xavfsizlik siyosati

Xavflarni baholash:

Operatsion boshqaruv:

Monitoring va o'lchash:

4. UNECE "Savdo jarayonlarini soddalashtirish standartlari".

BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi savdo jarayonlarini soddalashtirish bo'yicha bir qator muhim standartlarni ishlab chiqqan:

UNECEning "Ma'lumotlarni soddalashtirish va standartlashtirish" tavsiyalari.⁴ Bu tavsiyanoma xalqaro savdoda ma'lumotlarni soddalashtirish va standartlashtirish bo'yicha yo'riqnoma hisoblanadi.

5. Vakolatli iqtisodiy operator standartlari.⁵ Vakolatli iqtisodiy operator — bu bojxona organlari tomonidan tan olingan, tovar yetkazib berish zanjiri xavfsizligi va qonunchiligiga rioya qiluvchi ishonchli tadbirkorlik sub'ekti hisoblanadi.

2025-yil holatiga ko'ra, dunyoda 100 dan ortiq davlat AEO dasturini joriy etgan. AEO sertifikatiga ega tadbirkorlar soni 50 000 dan oshgan.

O'zbekistonda VIO instituti 2020-yilda joriy etilgan. 2025-yil holatiga ko'ra, 166 ta korxona va tashkilotlar VIO sertifikatiga ega. Ular quyidagi imtiyozlardan foydalanmoqdalar (3-jadval).

3-jadval

Xalqaro standartlarning taqqoslanishi

Standart	Qo'llanish sohasi	Asosiy maqsad	O'zbekistonda qo'llanilishi
WCO SAFE Framework	Bojxona nazorati va TEZ xavfsizligi	Xavfsizlik va osonlik muvozanati	2019-yildan
WTO TFA	Savdoni osonlashtirish	Savdo xarajatlarini kamaytirish	2020-yildan
ISO 28000	TEZ xavfsizligi boshqaruvi	Xavfsizlikni tizimli boshqarish	Cheklangan
UNECE standartlari	Ma'lumotlar standartlashtirish	Jarayonlarni soddalashtirish	2019-yildan
AEO standartlari	Ishonchli tadbirkorlar	Imtiyozlar berish	2020-yildan
Single Window	Elektron hujjat aylanishi	Bir nuqtada ma'lumot topshirish	2019-yildan

Xalqaro konvensiyalarni tahlil qilishda quyidagi ilmiy-metodologik yondashuvlardan foydalanamiz:

1. *Institutsional yondashuv* — konvensiyalarning tovar yetkazib berish zanjiri va bojxona nazorati institutlarini shakllantirishdagi rolini o'rganish

2. *Taqqoslash tahlili* — turli konvensiyalarning o'zaro bog'liqligi va farqlarini aniqlash

3. *Tizimli yondashuv* — konvensiyalarni yagona xalqaro-huquqiy tizim elementlari sifatida ko'rish

4. *Evolutsion yondashuv* — konvensiyalarning vaqt o'tishi bilan rivojlanish dinamikasini tahlil qilish

1. *Kyoto Konvensiyasi*. xalqaro bojxona huquqining *fundamental hujjati* hisoblanadi⁶. Kyoto Konvensiyasining ilmiy ahamiyati shundaki, u birinchi marta bojxona tartibotlarini standartlashtirish va soddalashtirish tamoyillarini xalqaro-huquqiy darajada mustahkamladi. Konvensiyaning ilmiy yangiligi shundaki, u bojxona nazoratini nafaqat davlat funksiyasi sifatida, balki xalqaro savdoni osonlashtirish instrumenti sifatida qayta konseptualizatsiya qildi.

⁴ United Nations Economic Commission for Europe (UNECE). Recommendation No. 34 — Data Simplification and Standardization. Geneva: UNECE, 2019. 28 p. URL: <https://unece.org/trade/recommendations>

⁵ European Commission. UNECE Recommendations Implementation. Brussels: EC, 2021. P. 12-18. URL: <https://ec.europa.eu>

⁶ World Customs Organization (WCO). International Convention on the Simplification and Harmonization of Customs Procedures (Kyoto Convention). Brussels: WCO, 1999. URL: <https://www.wcoomd.org/en/topics/nomenclature/instruments-and-tools/kyoto-convention.aspx>

Kyoto Konvensiyasining tovar yetkazib berish zanjiri boshqaruviga ta'siri *uchta darajada* namoyon bo'ladi:

Mikro daraja (korxona darajasi): Konvensiya korxonalarga bojxona tartibotlarini oldindan bashorat qilish imkonini beradi. Bu esa tovar yetkazib berish zanjiri ishtirokchilariga *rejalashtirish va optimallashtirish* imkoniyatini yaratadi.

Korxona darajasida konvensiya *supply chain predictability* (tovar yetkazib berish zanjiri bashorat qilinuvchanligi) kontseptsiyasini amalga oshiradi. Christopherning ta'kidlashicha, bashorat qilinuvchanlik tovar yetkazib berish zanjiri samaradorligining asosiy omillaridan biridir.⁷

Mezzo daraja (tarmoq darajasi): Konvensiya turli tarmoqlar o'rtasida bojxona tartibotlarini muvofiqlashtiradi. Bu esa *tarmoqlararo hamkorlikni* kuchaytiradi.

Mezzo darajada konvensiya *network governance* (tarmoq boshqaruvi) kontseptsiyasini amalga oshiradi. Powell va Smith-Colvinning ta'kidlashicha, tarmoq boshqaruvi murakkab tizimlarda samarali boshqaruvni ta'minlaydi.

Makro daraja (davlatlararo daraja): Konvensiya davlatlar o'rtasida bojxona tartibotlarini standartlashtiradi. Bu esa *xalqaro savdoni osonlashtiradi* va iqtisodiy integratsiyani kuchaytiradi.

Makro darajada konvensiya *regional integration theory* (mintaqaviy integratsiya nazariyasi) ni amalga oshiradi. Balassaning integratsiya nazariyasiga ko'ra, standartlashtirilgan qoidalar iqtisodiy integratsiyaning asosiy shartlaridan biridir.

2. *Istanbul Konvensiyasi: Vaqtinchalik kiritish rejimi va tovar yetkazib berish zanjiri boshqaruvi.*⁸

Istanbul Konvensiyasi - vaqtinchalik kiritish rejimini tartibga soluvchi asosiy xalqaro hujjat hisoblanadi. Istanbul Konvensiyasining ilmiy ahamiyati shundaki, u vaqtinchalik kiritish rejimini xalqaro-huquqiy darajada standartlashtirdi. Bu esa tovar yetkazib berish zanjiri ishtirokchilariga qo'shimcha imtiyozlar va yengilliklar beradi.

Istanbul Konvensiyasining tovar yetkazib berish zanjiri boshqaruviga ta'siri *to'rtta yo'nalishda* namoyon bo'ladi:

Birinchi yo'nalish — Ko'rgazma va yarmarkalar;

Ikkinchi yo'nalish — Professional uskunalar;

Uchinchi yo'nalish — Transport vositalari;

To'rtinchi yo'nalish — Ilmiy-uskunalar.

3. *TIR Konvensiyasi: Xalqaro tranzit va tovar yetkazib berish zanjiri boshqaruvi.*⁹

TIR Konvensiyasi xalqaro tranzitni tartibga soluvchi asosiy xalqaro hujjat hisoblanadi. TIR Konvensiyasining ilmiy ahamiyati shundaki, u *xalqaro tranzit tizimini* yaratdi va bu tizim orqali TEZ ishtirokchilari chegara nazoratidan tez va samarali o'tishlari mumkin.

TIR Konvensiyasining tovar yetkazib berish zanjiri boshqaruviga ta'siri *beshta yo'nalishda* namoyon bo'ladi:

Birinchi yo'nalish — Tranzit vaqtini qisqartirish: TIR tizimi orqali tranzit vaqti sezilarli darajada qisqaradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, TIR tizimi tranzit vaqtini 30-40% ga qisqartirishi mumkin.

Ikkinchi yo'nalish — Tranzit xarajatlarini kamaytirish: TIR tizimi orqali tranzit xarajatlari kamayadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, TIR tizimi tranzit xarajatlarini 20-25% ga kamaytirishi mumkin.

Uchinchi yo'nalish — Tranzit xavfsizligini oshirish: TIR tizimi orqali tranzit xavfsizligi oshadi. TIR karneti orqali tovarlar plombalanadi va monitoring qilinadi.

To'rtinchi yo'nalish — Tranzit shaffofligini oshirish: TIR tizimi orqali tranzit shaffofligi oshadi. TIR karneti orqali barcha tranzit ma'lumotlari standartlashtiriladi va oson kuzatiladi.

Beshinchi yo'nalish — Tranzit bashorat qilinuvchanligini oshirish: TIR tizimi orqali tranzit bashorat qilinuvchanligi oshadi. TIR tizimi standartlashtirilgan tartibotlarga asoslanganligi sababli, tranzit jarayonini oldindan bashorat qilish osonlashadi.

⁷ Christopher M. Logistics & Supply Chain Management. 5th ed. Harlow: Pearson Education, 2016. 320 p.

⁸ World Customs Organization (WCO). Istanbul Convention Implementation Guide. Brussels: WCO, 2015. P. 30-45.

⁹ United Nations Economic Commission for Europe (UNECE). TIR Convention Implementation Guide. Geneva: UNECE, 2020. P. 25-40.

4. *Konvensiyalarning o'zaro bog'liqligi*: Yuqoridagi uchta konvensiya o'zaro bog'liq bo'lib, ular yagona xalqaro-huquqiy tizimni tashkil qiladi. Bu tizim tovar yetkazib berish zanjiri va bojxona nazoratini boshqarishning kompleks mexanizmini yaratadi.

O'zbekiston konvensiyalarni amalga oshirishda quyidagi uchta asosiy muammo ga duch kelmoqda:

Birinchi muammo — Institutsional salohiyatning yetishmasligi: O'zbekistonda konvensiyalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan institutsional salohiyat hali ham yetarli emas. Bu muammo (institutsional salohiyatni oshirish nazariyasi doirasida tahlil qilinishi kerak.

Ikkinchi muammo — Texnik infratuzilmaning etarli emasligi: O'zbekistonda konvensiyalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan texnik infratuzilma hali ham etarli emas. Bu muammo texnik infratuzilma nazariyasi doirasida tahlil qilinishi kerak.

Uchinchi muammo — Kadrlar salohiyatining pastligi: O'zbekistonda konvensiyalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan kadrlar salohiyati hali ham past. Bu muammo inson kapitalini rivojlantirish nazariyasi doirasida tahlil qilinishi kerak.

Jahon tajribasida tovar yetkazib berish zanjirini bojxona nazorati orqali boshqarish bo'yicha ilmiy yondashuvlar:

Tovar yetkazib berish zanjiri va bojxona nazoratini boshqarish bo'yicha ilmiy adabiyotlarda sakkiz ta asosiy yondashuv shakllangan. Ushbu qismda har bir yondashuvning nazariy asoslari, tovar yetkazib berish zanjiri va bojxona nazoratiga qo'llanilishi, kuchli va zaif tomonlari, shuningdek O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari chuqur tahlil qilinadi.

Institutsional yondashuv. Institutsional yondashuv *Douglass North* va *Oliver Williamson* tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, iqtisodiy faoliyatni *institutsional muhit* (qoidalar, normalar, qonunlar) nuqtayi nazaridan tahlil qiladi. Bu yondashuvga ko'ra, institutlar iqtisodiy faoliyatning "o'yin qoidalarini" belgilaydi va tranzaksion xarajatlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Institutsional yondashuv tovar yetkazib berish zanjiri va bojxona nazoratini boshqarishda quyidagicha qo'llaniladi:

Birinchi daraja — Bojxona institutlarini tahlil qilish: Bojxona organlari *formal institut* sifatida ko'riladi va ularning tovar yetkazib berish zanjiri samaradorligiga ta'siri tahlil qilinadi.

Ikkinchi daraja — Institutsional muhitni baholash: tovar yetkazib berish zanjiri ishtirokchilari faoliyat yuritayotgan *institutsional muhit* baholanadi va uning tovar yetkazib berish zanjiri samaradorligiga ta'siri aniqlanadi.

Uchinchi daraja — Institutsional islohotlarni loyihalash: Bojxona tizimida *institutsional islohotlar* o'tkazish orqali tovar yetkazib berish zanjiri samaradorligini

O'zbekistonda institutsional yondashuvni qo'llash quyidagi imkoniyatlarni beradi:

Birinchi imkoniyat — Huquqiy bazani takomillashtirish: O'zbekistonning bojxona qonunchiligini xalqaro standartlarga moslashtirish orqali institutsional muhitni yaxshilash mumkin.

Ikkinchi imkoniyat — Institutsional salohiyatni oshirish: Bojxona organlarining institutsional salohiyatini oshirish orqali tovar yetkazib berish zanjiri samaradorligini oshirish mumkin.

Tanqidiy tahlil: Institutsional yondashuv tovar yetkazib berish zanjiri va bojxona nazoratini boshqarishning *institutsional jihatlarini* chuqur tahlil qiladi, ammo *texnik va raqamli jihatlarini* to'liq qamrab olmaydi.

2. *Tranzaksion xarajatlar yondashuvi*. Tranzaksion xarajatlar yondashuvi *Ronald Coase* va *Oliver Williamson* tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, iqtisodiy faoliyatni *tranzaksion xarajatlar* nuqtayi nazaridan tahlil qiladi. Bu yondashuvga ko'ra, iqtisodiy sub'ektlar tranzaksion xarajatlarni minimallashtirishga intiladilar.

3. *Tizimlik yondashuvi*. Tizimlik yondashuvi *Peter Checkland* va *Jay Forrester* tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, murakkab ob'ektlarni *yagona tizim* sifatida tahlil qiladi. Bu yondashuvga ko'ra, tizim elementlari o'zaro bog'liq bo'lib, ularning birining o'zgarishi butun tizimga ta'sir qiladi.

4. *Resurslarga asoslangan yondashuv*. Resurslarga asoslangan yondashuv *Birger Wernerfelt* va *Jay Barney* tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, tashkilotlar raqobatbardoshligini ularning *noyob resurslari* nuqtayi nazaridan tahlil qiladi. Bu yondashuvga ko'ra, tashkilotlar o'zlarining noyob, qiyta taqlid qilinadigan va o'rnini bosib bo'lmaydigan resurslari orqali raqobatbardosh ustunlikka erishadilar.

5. *Tarmoq yondashuvi*. Tarmoq yondashuvi *Walter Powell* va *Manuel Castells* tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, iqtisodiy faoliyatni *tarmoq munosabatlari* nuqtayi nazaridan tahlil qiladi. Bu yondashuvga ko'ra, tashkilotlar bozor yoki iyerarxiya emas, balki tarmoq munosabatlari orqali hamkorlik qiladilar.

6. *Integratsiyalashgan chegara boshqaruvi yondashuvi*. Integratsiyalashgan chegara boshqaruvi yondashuvi *Jahon bojxona tashkiloti* va *Jahon savdo tashkiloti* tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, chegara nazoratini *integratsiyalashgan tizim* sifatida boshqarishni nazarda tutadi. Bu yondashuvga ko'ra, chegara nazorati bir nechta davlat organlari (bojxona, chegara xizmati, fitosanitariya, veterinar) tomonidan amalga oshiriladi va ularning faoliyati muvofiqlashtirilishi kerak.

7. *Raqamli transformatsiya yondashuvi*. Raqamli transformatsiya yondashuvi *Gregory Vial* va *George Westerman* tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, tashkilotlarning *raqamli texnologiyalar* yordamida tubdan o'zgarishini tahlil qiladi. Bu yondashuvga ko'ra, raqamli transformatsiya nafaqat texnologiyalarni qo'llash, balki tashkilotning *biznes modellari, jarayonlar va madaniyatini* tubdan o'zgartirishdir.

8. *Xavflarni boshqarish yondashuvi*. Xavflarni boshqarish yondashuvi *Committee of Sponsoring Organizations (COSO)* va *International Organization for Standardization (ISO)* tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, tashkilotlarning *xavflarni identifikatsiya qilish, baholash va kamaytirish* jarayonini tahlil qiladi. Bu yondashuvga ko'ra, xavflarni boshqarish tizimli va uzluksiz jarayon bo'lib, tashkilotning maqsadlariga erishishiga yordam beradi.

4-jadval

Yondashuvlarning taqqoslanishi va integratsiyasi

Yondashuv	Asosiy urg'u	Kuchli tomoni	Zaif tomoni	O'zbekistonda qo'llanilishi
Institutsional	Qoidalar, normalar	Kompleks tahlil	Statik tahlil	Huquqiy bazani takomillashtirish
Tranzaksion xarajatlar	Xarajatlar	Miqdoriy tahlil	Ijtimoiy omillarni e'tiborsiz qoldirish	Bojxona xarajatlarini hisoblash
Tizimlik	Tizim elementlari	Kompleks tahlil	Murakkablik	Yagona axborot platformasi yaratish
Resurslarga asoslangan	Resurslar	Raqobatbardoshlik	Tashqi muhitni e'tiborsiz qoldirish	Raqamli resurslarni rivojlantirish
Tarmoq	Munosabatlar	Hamkorlik	Hokimiyat munosabatlarini e'tiborsiz qoldirish	Bojxona-biznes hamkorligi
Integratsiyalashgan chegara boshqaruvi	Integratsiya	Samaradorlik	Idoralararo raqobat	"Yagona darcha" tizimini takomillashtirish
Raqamli transformatsiya	Texnologiyalar	Zamonaviylik	Texnologik determinizm	"Raqamli O'zbekiston 2030" strategiyasi
Xavflarni boshqarish	Xavflar	Proaktiv yondashuv	Ma'lumot talabi	SUR tizimini takomillashtirish

Yuqoridagi sakkiz ta yondashuvning har biri Tovar yetkazib berish zanjiri va bojxona nazoratini boshqarishning alohida jihatlarini tahlil qiladi. Ammo hech bir yondashuv barcha jihatlarini to'liq qamrab olmaydi. Shuning uchun, ushbu dissertatsiyada integratsiyalashgan yondashuv taklif etiladi.

Tovar yetkazib berish zanjiri va bojxona nazoratini boshqarish bo'yicha sakkiz ta asosiy ilmiy yondashuv mavjud bo'lib, ularning har biri tizimning alohida jihatlarini tahlil qiladi. Ushbu dissertatsiyada bu yondashuvlar integratsiyalashtirilgan holda qo'llaniladi va yangi integratsiyalashgan yondashuv modeli taklif etiladi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi bojxona tizimida tovar yetkazib berish zanjiri barqarorligini oshirish uchun:

- "Yagona darcha" tizimiga barcha turdagi nazorat organlari (sanitariya, fitosanitariya, veterinariya va b.) ma'lumotlar bazasini to'liq integratsiya qilish;
- Xavflarni boshqarish tizimiga (XBT) sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali inson omilini minimallashtirish;
- AEO subyektlari sonini ko'paytirish va ular uchun beriladigan bojxona yengilliklari ko'lamini kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Taklif etilayotgan integratsiyalashgan yondashuv modelining amaliyotga tatbiq etilishi O'zbekistonning xalqaro logistika indekslaridagi reytingini yaxshilashga va mamlakatning tranzit salohiyatini tubdan oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. World Customs Organization (WCO). SAFE Framework of Standards to Secure and Facilitate Global Trade. Brussels: WCO, 2022. P. 12-45. URL: <https://www.wcoomd.org/en/topics/securing-and-facilitating-trade/safe-framework.aspx>.

2. World Customs Organization (WCO). International Convention on the Simplification and Harmonization of Customs Procedures (Kyoto Convention). Brussels: WCO, 1999. URL: <https://www.wcoomd.org/en/topics/nomenclature/instruments-and-tools/kyoto-convention.aspx>

3. World Customs Organization (WCO). Istanbul Convention Implementation Guide. Brussels: WCO, 2015. P. 30-45.

4. World Trade Organization (WTO). TFA Ratification Status. Geneva: WTO, 2023. URL: https://www.wto.org/english/trade-topics/tfa_en.htm

5. United Nations Economic Commission for Europe (UNECE). Recommendation No. 35 — Single Window Interoperability. Geneva: UNECE, 2020. 25 p. URL: <https://unece.org/trade/recommendations>.

6. United Nations Economic Commission for Europe (UNECE). Recommendation No. 34 — Data Simplification and Standardization. Geneva: UNECE, 2019. 28 p. URL: <https://unece.org/trade/recommendations>

7. United Nations Economic Commission for Europe. TIR Convention Implementation Guide. Geneva: UNECE, 2020. P. 25-40.

European Commission. UNECE Recommendations Implementation. Brussels: EC, 2021. P. 12-18. URL: <https://ec.europa.eu>

8. Christopher M. Logistics & Supply Chain Management. 5th ed. Harlow: Pearson Education, 2016. 320 p.